



**O'ZBEKISTONDA AXBORAT KUTUBXONA
MARKAZLARIGA BO'LGAN TALABNI KUCHAYTIRISH,
O'QUVCHILARNING KITOBGA QIZIQISHINI ORTTIRISH.**

Pirnazarova Dilduza Quralbay qizi

Kutubxona - axborot faoliyati 1-kurs magistranti (talabasi)

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01- apiril 2023 yil

Ma'qullandi: 05-apiril 2023 yil

Nashr qilindi: 11-apiril 2023 yil

KEY WORDS

*texnologiya, kitob, kutubxona,
psixologiya, metod, kuzatish,
suhbat, kitobxonlik*

ABSTRACT

Biz bu maqolada O'zbekiston Respublikasida kutubxonalarning tutgan o'rnini oshirish vazirnatini yaxshilash, yoshlar orasida kitobxonlik ma'daniyatini oshirish haqida bayon qilzmiz. Hozirgi kunda texnologiyalar juda tez rivojlanayotgan bir zamonda kitoblarning ahamiyatini oshirish katta aktual masala bo'lib qolmoqda.

Ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirish, uni jahon andozalari darajasiga ko'tarish, fan sohasidagi yangiliklarni amaliy hayotga tatbiq etish muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, ularda fan asoslariga nisbatan bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kitobga bo'lgan qiziqishni uyg'otish o'z navbatida psixologiya, bolalar xarakteristikasini bilmay turib amalga oshmaydi. Chunki har bir bola o'z shaxsiyat va dunyo qarashga ega. Shaxs kamoloti va uning taraqqiy etishida psixologiyaning o'rne beqiyosdir. Shuning uchun ham bolalarni kitob o'qishga qiziqitirishda psixologiya eng asosiy omil hisoblanadi. Hozirgi zamon tarbiyachisi ijtimoiy-kasbiy vazifalarini bajarish uchun yuksak ma'naviy xislatlarga ega bo'lishi, umumiy va kasb madaniyati, ziyoliligi, axloqiy pokligi, faolligi, shaxsiy hissiyotlarga berilmasligi, ijodiy tasavvur egasi, psixik jihatdan sog'lom, davlatimiz fuqarosi sifatida mas'uliyatni his eta bilishi lozim. Tarbiyachilik kasbiga xos psixik holatlar va xarakter maktabgacha yoshdagi bolalar psixikasining o'ziga xos xususiyatlarini tarbiyalashning psixik asoslari va qonuniyatlari haqida bilim, ko'nikma va malakalar berishdan va ularni kasbiy faoliyatga tatbiq etishdan iborat.

Jamiyat, millatning rivojlanishi, taraqqiy etish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bilimli, ma'naviyatli va ma'rifatli yoshlarining jamiyat yuksalishida o'rne beqiyos. Bunday yoshlarni barkamol etib tarbiyalovchi asosiy omillardan biri-mutolaa qilish vositasi kitob hisoblangan. Bizni yerdan ko'kka ko'taradigan, barkamollik sari yetaklaydigan, insonlar qalbiga yorug'lik va iliqlik kiritadigan, oq bilan qora, yaxshilik bilan yomonlik, vayronkorlik bilan bunyodkorlikning farqini ongli ravishda anglatishga yordam beradigan, insoniyat tomonidan yaratilgan eng noyob kashfiyot ham bu-kitobdir. [7.12] Kitob insonni ulug'laydi, Vatanni sevish, insonparvarlik, o'zi yashab turgan hayotga shukronalik hissi bilan qarash, boshqalarga mehr-muruvvatli va xushmuomala bo'lish, atrofdagi insonlarga yaxshilik ulashish kabi insoniy fazilatlarni tarbiyalaydi. Kitobning inson hayotidagi ahamiyati beqiyos bo'lib, u inson umr yo'llarini yorituvchi so'nmas nur, inson hayotiga mazmun baxsh etuvchi saodat manbai, har qanday vaziyatda ham hamroh bo'lguvchi sodiq do'stdir. Shu jihatlarni hisobga olgan holda,

bugungi kunda yoshlar va aholi o'rtasida kitobga bo'lgan qiziqish va kitobxonlik darajasini oshirish hamda kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Kitobxonlik amalda keng joriy etish jarayonida birinchi navbatda mavjud kutubxonalarni rekonstruksiya qilish, ularning moddiy-texnik bazasini yangilash, kerakli ilmiy va badiiy adabiyotlar bilan ta'minlash, kutubxonalar faoliyatida zamonaviy innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishimiz va undan samarali foydalanishimiz mumkin. Bu ishlarni amalga oshirilishi uchun zarur chora-tadbirlar belgilab berilgan va ularning ijrosi muntazam nazorat qilib borilmoqda. Buning yorqin dalili sifatida yurtimizni rivojlantirishdagi 5 ta muhim tashabbusga Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish'ni yo'nalish sifatida belgilab berilganligi fikrimizga yorqin misol bo'ladi. Buyuk bobokalonlarimiz ham bola tarbiyasida kitobning o'rni henihoya katta ekanligini, uni tafakkurning tolmas qanoti sifatida inson ma'naviy olamini boyitishi, yuksak ijodiy va yaratuvchalik vositasi sifatida nihoyatda qadrlash hamda undan samarali foydalanish zarurligini ta'kidlan o'tganlar. Mutaxassislar bola hayotining ilk yosh davrini 'mo'jizalar davri deya nomlaganlar [3,165-bet]. Bu davrda bolalarga kitob o'qishga tayyorlanadi. Bunda avval nutq malakalarini, eshitish va so'zlashishni mukammal o'rganib olishlari lozim. Bolalarni kitobga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish jarayonini biz albatta oiladan boshlasak juda ijobiy natija berishi va undan keyin maktabgacha ta'lim tashkilotlarida oila bilan hamkorlikda davom ettirsak kutilgan natijaning yanada samarali bo'lishi mumkin. Oilada tarbiyaning barcha mezonlari shakllantirilganidek, kitobxonlik madaniyati ham sh maskandan boshlansa yaxshi samara beradi. Chunki, Qush uyasida ko'rganini qiladi, degan behudaga aytilmagan. Muqaddas maskanda ota-ona bolalarni kitobga bo'lgan qiziqishlarini orttirishda o'zlari namuna bo'lishlari va o'zlari kitob mutoola qilishlari yaxshi samara beradi. Va ayniqsa yoshlar hozirgi kunda kitobga bo'lgan muhabbati birqancha oshganini ko'rishimiz mumkin. Masalan, har bitta uyda bir kitobxon bolaning bo'lishi oddiy ko'rinishga aylandi. Bunga birqancha omillar sabab bo'ldi.

Bolaning 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan maktabgacha yoshi bolalik davrining katta bir qismini tashkil etadi. Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyatlari rivojlanadi hamda shaxsiy individual xususiyatlari (shaxsiy fazilatlari) tarkib topa boshlaydi. Rus pedagoglaridan P.F.Les Gaftning fikricha, insonning maktabgacha yoshidagi davri shunday bir davrki, ana shu davr mobaynida kelgusida qanday xarakter xislatlari paydo bo'lishi belgilanadi va axloqiy sifatlarining asoslari yuzaga keladi. A.S.Makarenko bolalarni juda kichik davridan boshlab tarbiyalash zarurligi haqida gapirib, tarbiyaning eng muhim asoslari bolaning besh yoshgacha bo'lgan davri mobaynida yuzaga keltiriladi. Mana shu davrda qilingan butun tarbiya, tarbiya jarayonining 90% ini tashkil etadi, dedi. [4.85]

Oila muhitida kitobxonlikning tizimli ravishda olib borilishi kutilayotgan natijaning samarasini yanada oshiradi. Bolalarga yoshlikdan o'zbek xalq ertaklaridan so'zlab berish bolalarda mehnatsevarlik, samimiylik, mehmondo'stlik kabi insoniy fazilatlarni hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan hurmat va ehtirom kabi tushunchalarni tarbiyalaydi. Bundan tashqari, buyuk allomalarimiz Alisher Navoiy, Forobiy, Abdulla Avloniy, Niyoziy, Yusuf Xos Xojib, Jaloliddin Rumiy kabi mutafakkirlarimiz bilan tanishtiramiz va ularning tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan fikrlar esa bola tarbiyasida asosiy manba bo'lib qoladi.

Kitob — axborotlarni, g'oya, obraz va bilimlarni saqlash hamda tarqatish, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, estetik qarashlarni shakllantirish vositasi; bilimlar targ'iboti va tarbiya quroli;

badiiy, ilmiy asar, ijtimoiy adabiyot. Xalqaro statistikada YUNESKO tavsiyasiga ko'ra, hajmi 48 sahifadan kam bo'lmagan, taboqlab tikilgan nodavriy nashrni, shartli ravishda, Kitob deyish qabul qilingan. [1.147]

Kitob ishi kitobni yaratish, tayyorlash, uni tarqatish, saqlash, tavsiflash va o'rganish bilan bog'liq katta jarayonni o'z ichiga oladi. Fan, adabiyot, san'at asarlaridan matbaada ko'paytirish va tarkatish uchun tanlash, ularga ilmiy va badiiy nuqtai nazardan yondoshish, tahrir qilish, badiiy bezash, matbaa ijrosini belgilash va nashrga tayyorlash noshirlikning vazifasi. Kitobni ko'plab chiqarish — kitob bosish ishi poligrafiya sanoatida olib boriladi. Kitoblarni to'plash, saqlash, o'quvchilar o'rtasida tashviqot qilish, ulardan kitobxonlar foydalanishlari uchun qulay sharoit yaratish kutubxona ishiga tegishli. Kitob va boshqa bosma asarlar haqida muayyan maqsad bilan o'quvchilarga ma'lumot berish va ularni tashviqot qilish bibliografiya vazifasidir va hakoza. [6.39]

Qog'ozning kashf qilinishi Kirob tarixida yangi davr ochdi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, 650 yillardayoq Samarqandda qog'ozli Kitoblar bo'lgan. 13-asrdan Yevropada qog'oz asosiy yozuv materiali bo'lib qoldi. [2.45] Qog'oz Kitobning ko'payishiga va tarqalishiga yangi imkoniyat ochdi. K. bezashga alohida ahamiyat berildi. Uning sahifalariga turli miniatyuralar, hoshiyalariga bezaklar ishlana boshladi. Asta-sekin xattotlik (kalligrafiya), muqovasozlik kabi kasblar ajralib chiqdi. Ayniqsa, O'rta Osiyoda o'rta asrlarda xattotlik san'ati keng rivojlandi. Mashhur xattotlarning ko'p avlodlari Kitob tayyorlash usulini — materiallar, siyoh, xat ko'chirish texnikasini takomillashtirib bordilar.

Respublikamiz Prezidenti ham yosh avlod ta'lim-tarbiyasida kitobning o'rni va ahamiyati beqiyos ekanini alohida ta'kidlab, "Ayni vaqtda axborot-kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o'zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do'st bo'lishiga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi, aytgan fikrlari fikrimizning dalilidir. Shuning uchun ham ular o'z qiziqishlarini qondirish uchun kattalarni xilma xil savollarga ko'mib tashlaydilar. Endi ular voqea va hodisalarga boshqacha ko'z bilan qaraydilar, voqeilikni bilishga intiladilar va xotirada saqlab qoladilar. Nima uchun qaroqchi bo'ladi?, Nima uchun qushlar uchadi-yu odamlar uchmaydi?, Nima uchun qor yog'adi? va boshqa savollar bilan kattalarga murojaat qiladilar. Chunki bu davrda ularning rivojlanishi alohida bir bosqichni tashkil etib, aqliy va jismoniy o'sishida, o'qitish va tarbiyalashda o'ziga xos yosh xususiyatlarga amal qilishini talab etadi. Kitobxonlar uchun konkret narsani obrazli fikrlash xarakterlidir, o'qish davomida shu obrazli fikrlash orqali ularning tushunchalari o'sib boradi. Bu yoshda bolani kitobning yozlishi masalaning qo'yilishi emas, kitobdagi obraz, voqea va hodisa qiziqtiradi.

Xulosa qilib aytganda bolalarni kitobxonlikka, kitob o'qishga qiziqtirishda psixologiyaning o'rni beqiyosdir. Chunki psixologiyaning qator metodlari orqali bolalarning kitobxonlik ko'nikmalarini shakllatirishning samaradorligi turli tajriba va tadqiqot ishlari tomonidan aniqlangan. Haqiqatan ham bolaning maktabgacha yoshidagi davri shu qadar mazmundor va faol davrdiki, bu davr bolaning kelgusi o'sishida albatta o'z aksini qoldiradi. Shuning uchun maktabgacha yoshidagi davr ta'sir o'tkazish kuchi jihatidan g'oyat mas'uliyatlidir. Bola ilk yoshdan maktabgacha davrga o'tgach, uning butun yashash sharoitida jiddiy psixologik o'zgarishlar yuz beradi. Barcha ezgu ishlarning, bunyodkor g'oyalarning asosi bu kitobdir. Bizga ilm nurlarini sochadigan ham kitobdir. Shuning uchun ham biz bugungi kunda kitobga bo'lgan qiziqishni oiladan boshlasak va bu uchun ularni yoshiga mos kutubxonalarni

shakllantirsak nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Bolada o'qish malakalarni shakllantirish negizida og'zaki nutq rivojlanish va kitobga muhabbatni oshirish lozim. Biz buyuk ishlarga qodir yoshlarimizni hayot yo'llarida hamroh va maslahatgo'y, bir umrlik sodiq do'st kitobga tayanishni oiladan boshlasak, kelajagi buyuk yurtimiz uchun munosib bunyodkor yoshlarni tarbiyalab voyaga etkazishda o'z hissamizni qo'shgan bo'lardik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston respublikasi prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbus-T.: 2019 yil, 19-mart.
2. G'oziyev E.G'. Ontogenez psixologiyasi, T.: 2010 yil.
3. Yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatini oshirish bosqichlari . O., zPFITI. T., 1995.
4. Murodova N.A va boshqalar. Kitob va jamiyat. T.: Ilm, ziyo, 2006
5. . M.G. Davletshin., Sh. Do'stmuxamedova, M. Mavlonov, S. To'ychiyev. —Yosh davrlari va pedagogi psixologiya||. O'quv qo'llanma. T., 2004-y.
6. N.K Nazarova "Maktabda kitobxonlik". "TDPU" nashriyoti, T.: 2013-y.
7. J.G'. Yo'ldashev —Interfaol ta'lim sifat kafolati|| O'MOI T-2007



**INNOVATIVE
ACADEMY**